



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No5(4)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 322 sahifa,  
18-may, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### EDITORIAL BOARD MEMBERS:

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



# MUNDARIJA

O'quvchi yoshlarni muhandislik kasblariga yo'naltirishda xorij tajribasi.....	10
<a href="#">Maxamov X. T., Omondavlatova Sofiya Baxtiyor qizi</a>	
2-sinf darslarida "4K" ko'nikmalarini shakllantirish: XXI asr savodxonligi poydevori .....	14
<a href="#">Jo'rayeva Nargiza O'ktamovna</a>	
Ommaviy axborot vositalarining inson ruhiy salomatligiga ta'siri: empirik tadqiqot natijalari.....	18
<a href="#">Abdinazarova Bibixonim Rashid qizi</a>	
Talabalar uchun amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda texnik loyihalarning o'rni .....	23
<a href="#">Axmadaliyev Mansurbek Erkaboy o'g'li, Rejabov Jaloliddin Sadiq o'g'li</a>	
Masalalarni modellashtirish metodi yordamida yechish yo'llari .....	28
<a href="#">B. B. Qarshiyev, Bekmuradov Bobur Toyloq o'g'li</a>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida elektron o'quv materiallaridan foydalanishning afzalliklari.....	34
<a href="#">Tog'aymurodova Marjona Yusuf qizi</a>	
Raqamli ta'lim muhitida dizaynerlik faoliyatlarini rivojlantirishning zamonaviy metodlari.....	39
<a href="#">Satvoldiyeva Malaxatxon A'zamjanovna</a>	
Metall va metallmas buyumlarga ishlov berish texnologiyasi fanidan amaliy dars mashg'ulotlarini raqamli texnologiyalar asosida o'qitish metodikasi .....	47
<a href="#">A. Safarov</a>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish mezonlari.....	57
<a href="#">Xolmatov Doston Dilshod o'g'li</a>	
7–8-sinf biologiya darslarida kompetensiyaviy yondashuvni takomillashtirish metodikasi .....	60
<a href="#">Xolmurodova Sarvinoz</a>	
Zamonaviy adabiyotda lider ayol portreti va shaxsiy rivojlanish falsafasi.....	64
<a href="#">G'afforova Dildora Ergashevna</a>	
Boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash metodikasini takomillashtirishning pedagogik asoslari.....	69
<a href="#">Yusupova Umida Zayniddin qizi</a>	
Umumta'lim maktabida xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalashda kreativ yondashish texnologiyalarining mazmun-mohiyati.....	74
<a href="#">Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, G'aniyeva Dilfuza A'lam qizi</a>	
Oila muhitining raqamli tadbirkorlik motivatsiyasiga ta'siri: psixologik tahlil .....	78
<a href="#">Tursunov Lutfulla Sayfullayevich, Boyqobilova Sevinch Fazliddin qizi</a>	
Maktab va muzeylar aloqadorligini ta'minlash asosida o'quvchilarni ma'naviy merosga hurmat ruhida tayyorlashning pedagogik texnologiyasi .....	81
<a href="#">Nizomxonova Nargizaposhsho Ekrixon qizi</a>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida produktiv o'qish malakasini shakllantirish.....	86
<a href="#">Xurramova Sojida Abdunazar qizi</a>	
Oliy ta'lim tizimida liderlik kompetensiyalarini takomillashtirishning kompleks yondashuvlari.....	91
<a href="#">Risvayeva Charos Zaydilla qizi</a>	
Sport sohasining ommaviyligi va inklyuzivligi .....	94
<a href="#">Z. N. Urunova, M. Jaborova</a>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida psixologik muhitni swot-tahlil qilish va korreksiyalash .....	97
<a href="#">Sattorova Shirinoy San'atovna</a>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kognitiv kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuv ..	100
<a href="#">Buvrayev Akram Rustam o'g'li</a>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy nutqiga qo'yiladigan talablar .....	104
<a href="#">Xolmuminova Dilfuza Xolmamatovna</a>	
O'qituvchining kasbiy faoliyatida ma'naviy-axloqiy fazilatlarining ahamiyati .....	107
<a href="#">Jumanazarova Dilnoza Umurzaqovna</a>	



Hadislar yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish .....	111
<i>Akaboyeva Malika Raxmatovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatish texnologiyasi .....	114
<i>Beshimova Muazzam Bahodirovna, To'lanboyeva Farangis Ibrohimjon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili fanini o'qitishda kreativlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari .....	117
<i>Xoliyeva Sevara Rustam qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda multimedia texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyasini tarkib toptirish .....	122
<i>Narmatova Fotima Dilshod qizi</i>	
Organizing Physics Lessons in General Education Schools Based on Gamification Elements .....	127
<i>Y. A. Mamatokhunov, U. S. Ismoilov, M. A. Muxtorjonova</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning samaradorligi....	129
<i>Meyliyeva Sevinch Bozor qizi</i>	
Anoreksiyasi va bulimiyaning psixologik determinantlari hamda klinik jihatlari .....	132
<i>Askarova Nargiza Abdivaliyevna, To'raqulova Sevinch Sattorjon qizi</i>	
Koxlear implantli bolalar fonematik eshituvini shakllantirish asosida tovush talaffuzini shakllantirish .....	136
<i>Bozorov Otabek Yo'lchi o'g'li, Yakubova Asalxon Ulug'bek qizi</i>	
Qisqa masofaga yuguruvchi yosh sportchilarning kuch va tezlik-kuch ko'rsatkichlarini rivojlantirishda yillik rejalashtirish samaradorligi .....	139
<i>Eshpulatov Jamshid Nuraliyevich</i>	
Разработка модуля автопрокторинга для платформ дистанционного обучения на основе компьютерного зрения и анализа активности пользователя .....	144
<i>Дустқобилов Акмал Бобомуродович</i>	
Определение нарушений академической честности на онлайн-экзаменах на основе компьютерного зрения: алгоритм и эффективность модуля камерaproctor .....	149
<i>Дустқобилов Акмал Бобомуродович, Маматов Исломбек Ильесович</i>	
Zamonaviy ta'limda sun'iy intellekt texnologiyalari: imkoniyatlar, muammolar va istiqbollar .....	154
<i>Delov To'liqin Erkinovich, Gulmirzayeva Zulayho Ko'klanboy qizi</i>	
Ijtimoiy tarmoqlarning talaba yoshlar psixologiyasiga ta'siri .....	160
<i>Saidakbarova Nigora Abduraxim qizi</i>	
Talabalarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning besh blokli pedagogik modeli .....	165
<i>Amonov Mirjon Namozovich</i>	
O'smirlarning raqamli texnologiyalarga qaramligi va uning psixologik salomatlikdagi o'rni .....	170
<i>Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Normamatova Aziza Ibroxim qizi</i>	
Qizlarda erta nikohning psixologik omillari va sabablari .....	174
<i>Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv motivlarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari .....	178
<i>Jumayeva Guzal Xayriddin qizi</i>	
Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda barmoqlar harakati mashqlari asosida kichik motorika va harakat koordinatsiyasini rivojlantirish .....	183
<i>Mirzakarimov Yuldashboy Abdinabiyevich</i>	
Globalashuv sharoitida yoshlar tashkilotlari orqali milliy o'zlikni anglashni shakllantirishning pedagogik strategiyalari .....	187
<i>Axralova Marg'uba Akmalxanovna</i>	
Tarbiya fani asosida o'quvchilarda huquqiy kompetentlikni rivojlantirish imkoniyatlari .....	191
<i>Jumanova Xafiza Xoliqulovna</i>	
Zamonaviy ilmiy-texnika taraqqiyoti sharoitida texnologik ta'lim mazmunini STEM yondashuvi asosida integratsiyalash va talabalarning texnik fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish .....	196
<i>Imanov Baxtiyor Berdiyevich, Qulmamatova Xurshida Abduxamidovna, Barataliyeva Nasiba Maxmadaminovna</i>	
Ijodiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv jarayonining mazmuniy ta'minoti .....	202
<i>Kubayeva Mavluda Baxtiyor qizi</i>	

The Influence of a Competency-Based Approach on Educational Quality in Physics Instruction .....	205
<i>A. Xakimov, Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, M. A. Ne'matova</i>	
Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning ekologik savodxonligini shakllantirishning amaliy holati .....	208
<i>Majitov Turg'unali Anvar o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilariga ingliz tilini o'rgatishning pedagogik va psixologiyistik xususiyatlari.....	214
<i>Ismoilova Muattar Ilyosovna</i>	
Sharq mutafakkirlarining yoshlarni mehnat va kasb-hunarga o'rgatish bo'yicha qarashlari.....	219
<i>Alqarov Qodir Xoimatovich, Irmatov Pirmuhammad Normat o'g'li</i>	
Metallar mavzusini interfaol metodlar asosida o'qitish orqali o'quvchilar kreativligini oshirish .....	222
<i>Murodova Sayyora Qanoatovna</i>	
Moliyaviy terminlarni tarjima qilishning metodologik muammolari.....	226
<i>Norboeva Dilafuz Djumaqulovna, Suvonov Ozodbek Jamshid o'g'li</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida yakuniy nazorat jarayonlarini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida tashkil etishning afzalliklari .....	230
<i>Abdunabiyeva Kamola Mansurovna</i>	
Pedagogik ta'limda AI-tutor texnologiyalaridan foydalanish: o'zaro ta'sir mexanizmi va samaradorlik tahlili .....	236
<i>Abdunabiyeva Maftunaxon Solijon qizi</i>	
Talabalarda prokrastinatsiyani kamaytirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari .....	240
<i>Kozimov Sayfullah Maxammadjon o'g'li</i>	
Kompetensiyaviy yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirish.....	245
<i>Raximov Zokir Toshmirovich</i>	
Yosh voleybolchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarliklarini oshirishning pedagogik asoslari .....	249
<i>Temirov Shoirbek Raimjonovich</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv jarayonlari mexanizmlarini takomillashtirish.....	253
<i>Kimsanova Rahnamo Solijonovna</i>	
Milliy kurash vositasida yoshlarning irodaviy sifatlarini rivojlantirish.....	257
<i>Muratov Muzaffar Shermamatovich</i>	
Xavotirlanish muammosining psixologik-pedagogik adabiyotlarda o'rganilganligi va o'smirlilik davrining psixologik xususiyatlari .....	261
<i>Mutalibjonov Nurillo Iroiljon o'g'li</i>	
Bo'lajak pedagoglarda kreativ tafakkurni rivojlantirishning innovatsion va reflektiv asoslari .....	264
<i>Oblayeva Lobar Erdonovna</i>	
STEM Education Technology: Physics Teaching Methodology and Future Innovations .....	268
<i>Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, Odinakhon Sotvoldiyeva Abdumannob qizi</i>	
Mustaqil ta'limni tashkil etishning nazariy asoslari .....	272
<i>Qurbonova Buzaynab Nurmuxammadiyevna</i>	
Maktabgacha tarbiya yoshda bolalar kognitiv sohasining tadqiq qilinishi.....	276
<i>Raxmonova Shaxrizoda Laziz qizi</i>	
Modernization of Physics Teaching Methodology Based on Stream Integration in Vocational Schools.....	279
<i>S. Z. Zaynobiddinov, Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, Z. M. Orifjonova</i>	
Cultural Competence as a Core Component of Foreign Language Teaching: Theoretical Foundations and Pedagogical Integration .....	282
<i>Shahlo Obidova</i>	
Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarning akmeologik madaniyatini rivojlantirishda ART-pedagogik texnologiyalardan foydalanish.....	286
<i>Shodmonova Shoirsa Saidovna, Sharifova Dildora Shavkiddin qizi</i>	
Talabalarning to'garak mashg'ulotlari orqali ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish yo'llari .....	290
<i>Turakulova Feruza Mamadoli qizi</i>	



Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili fanini o'qitishda kreativlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari .....	294
<i>Xoliyeva Sevara Rustam qizi</i>	
Texnologiya darslarida raqamli texnologiyalar vositasida o'quvchilarning tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	298
<i>Xudoyberdiyeva Nilufar Raximqulovna</i>	
Umumta'lim maktablari musiqa darslarida media-kontentlardan foydalanib o'quvchilarda estetik didni shakllantirish.....	302
<i>Xudoyqulov Asilbek Aziz o'g'li</i>	
Педагогические стратегии профилактики раннего профессионального выгорания у студентов-медиков (в условиях высокой информационной нагрузки) .....	305
<i>Асророва Мафтунабегим Махаммадризо кизи</i>	
Формирование самоотношения у подростков, переживших насилие .....	308
<i>Кушакова Наргиза Исламбаевна, Азаркова Миланика Дмитриевна</i>	
Изучение развития эпистемических знаний у учащихся 5-го класса в педагогико-психологической литературе.....	311
<i>Нехочина Лола Шахобиддиновна</i>	
Когнитивные уровни читательской деятельности в заданиях PIRLS: типология, процессы понимания и система оценивания.....	314
<i>Нуруллаева Шахло Уктамовна, Александра Валерьевна Шаркова</i>	

# 7–8-SINF BIOLOGIYA DARSLARIDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI

Xolmurodova Sarvinoz

Guliston davlat pedagogika instituti,  
Aniq va tabiiy fanlar fakulteti 1-bosqich magistranti

**Annotatsiya:** Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7–8-sinf biologiya kursida kompetensiyaviy yondashuvni tatbiq etishning metodik tizimi tahlil qilingan. Tadqiqotning dolzarbligi an'anaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalari yetarli darajada shakllanmayotgani hamda xalqaro baholash dasturlari – PISA va TIMSS doirasidagi mantiqiy topshiriqlarni bajarishda qiyinchiliklarga duch kelayotgani bilan izohlanadi. Shu asosda 7-sinf "Biologiya" va 8-sinf "Odam va uning salomatligi" fanlari misolida ekologik, tadqiqotchilik hamda sog'lom turmush tarzi kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik mexanizmlari o'rganilgan. Nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalarga aylantirishda Case-study va Project-based learning metodlarining samaradorligi ilmiy jihatdan asoslangan. Tadqiqot natijalari o'quvchi faolligiga yo'naltirilgan darslar kognitiv jarayonlarni – bilish, tahlil va sintezni rivojlantirib, o'zlashtirish ko'rsatkichlarini 15–20 % ga oshirishini ko'rsatdi. Yakunda biologiya o'qituvchilari uchun kompetensiyaviy yondashuv asosida dars sifatini takomillashtirishga oid amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** kompetensiyaviy yondashuv, biologiya metodikasi, PISA talablari, tadqiqotchilik ko'nikmasi, Case-study, kognitiv rivojlanish.

**Abstract:** The methodological system for implementing a competence-based approach in biology lessons for 7th–8th grades of general secondary schools is analyzed. The relevance of the research is determined by the fact that, within traditional education, students often experience difficulties in applying theoretical knowledge to real-life situations and in solving logical tasks included in international assessment programs such as PISA and TIMSS. In this regard, the didactic mechanisms for developing ecological, research, and healthy lifestyle competencies in 7th-grade Biology and 8th-grade Human Anatomy and Health lessons were examined. The effectiveness of Case-study and Project-based learning methods in transforming theoretical knowledge into practical skills is scientifically substantiated. The research findings indicate that student-centered lessons enhance cognitive processes – knowledge acquisition, analysis, and synthesis – and improve academic achievement by 15–20%. The study concludes with practical recommendations for biology teachers aimed at improving lesson quality through a competence-based approach.

**Key words:** competence-based approach, biology teaching methodology, PISA requirements, research skills, Case-study, cognitive development.

**Аннотация:** Исследована методическая система реализации компетентностного подхода в курсе биологии 7–8-х классов общеобразовательных школ. Актуальность исследования обусловлена тем, что в условиях традиционного обучения учащиеся, усваивая теоретические знания, испытывают трудности при их применении в жизненных ситуациях, а также при выполнении логических заданий международных программ оценки PISA и TIMSS. На этой основе проанализированы дидактические механизмы формирования экологических, исследовательских компетенций и компетенций здорового образа жизни на уроках биологии в 7-х и 8-х классах. Научно обоснована эффективность методов Case-study и Project-based learning в преобразовании теоретических знаний в практические навыки. Результаты исследования показали, что ориентация уроков на активную деятельность учащихся способствует развитию когнитивных процессов – познания, анализа и синтеза, а также повышает показатели успеваемости на 15–20 %. В заключительной части представлены практические рекомендации для учителей биологии по совершенствованию качества уроков на основе компетентностного подхода.

**Ключевые слова:** компетентностный подход, методика преподавания биологии, требования PISA, исследовательские навыки, Case-study, когнитивное развитие.



## KIRISH

Mashhur pedagog va kognitiv psixolog Benjamin Blum shunday degan edi: “Ta’limning maqsadi – o’quvchi xotirasini ma’lumotlar bilan to’ldirish emas, balki unda yangi bilimlarni yaratish va muammolarni hal qilish qobiliyatini shakllantirishdir”. Darhaqiqat, bugungi global axborotlashgan jamiyatda biologiya ta’limi oldida turgan eng dolzarb vazifa o’quvchilarga shunchaki faktik ma’lumotlarni yodlatish emas, balki ularda hayotiy muhim kompetensiyalarni rivojlantirishdan iboratdir.

O’zbekiston Respublikasida Milliy o’quv dasturining (MUD) joriy etilishi biologiya fanini o’qitishda “bilim markazli” modeldan “kompetensiya markazli” modelga o’tishni davlat siyosati darajasiga ko’tardi. Bu o’zgarishlar o’quvchilardan tabiiy-ilmiy savodxonlikni, ya’ni biologik jarayonlarni tushunish va ularni hayotiy vaziyatlarda tahlil qila olishni talab etadi. Ayniqsa, PISA (Programme for International Student Assessment) kabi xalqaro baholash tizimlari o’quvchining olgan bilimni real hayotda qanchalik samarali qo’llay olishiga asosiy urg’u beradi.

Biroq, 7-sinf “Biologiya” (Zoologiya) va 8-sinf “Odam va uning salomatligi” kurslarini o’qitishda hali ham nazariya va amaliyot o’rtasidagi uzilishlar kuzatilmoqda. O’quvchilar hayvonot dunyosi yoki inson anatomiyasi haqidagi murakkab terminlarni yodlasalar-da, ekologik muvozanatni saqlash yoki o’z salomatligini asrash bo’yicha amaliy yechimlar topishda qiynalmoqdalar. Ushbu ziddiyatni bartaraf etish uchun dars jarayonini Bloom taksonomiyasi asosida, ya’ni quyi darajadagi “yodlash” bosqichidan yuqori darajadagi “tahlil va ijod qilish” bosqichiga olib chiqish zaruriyati tug’iladi.

Shu bois, tadqiqotimizda 7–8-sinf biologiya darslarida o’quvchilarning tadqiqotchilik va sog’lom turmush tarzi kompetensiyalarini rivojlantirishda Keys-stadi (Case-study) va loyihaviy ta’lim (Project-based learning) metodlarining o’rni hamda samaradorligini metodik jihatdan takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi. Bundan tashqari, darsliklardagi kamchiliklarni bartaraf etish, mavzular ketma-ketligini qayta ko’rib chiqish masalalariga ham alohida e’tibor qaratiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Biologiya ta’limida kompetensiyaviy yondashuv masalasi jahon va respublika pedagogika fani vakillari tomonidan keng tadqiq etilgan. Jumladan, xalqaro miqyosda B. Bloom o’zining kognitiv darajalar taksonomiyasi orqali ta’lim mazmunini shunchaki bilish bosqichidan tahlil va ijod qilish bosqichiga olib chiqish zarurligini isbotlagan. Uning nazariyasi bugungi kunda PISA va TIMSS kabi xalqaro baholash dasturlarining metodologik asosi hisoblanadi.

Respublikamiz olimlaridan R. Safarova va U. Inoyatovlar o’z ilmiy ishlarida o’quvchilarning tayanch kompetensiyalarini shakllantirishda shaxsga yo’naltirilgan ta’lim texnologiyalarining o’rni haqida muhim nazariy xulosalar berganlar.

Shuningdek, biologiya metodikasi sohasida J. Tolipova va A. G’ofurovlar tomonidan biologik tushunchalarni shakllantirishda darsliklarning didaktik imkoniyatlari hamda laboratoriya mashg’ulotlarining ahamiyati batafsil yoritilgan. Biroq, tahlillar shuni ko’rsatadiki, aynan 7–8-sinf biologiya kursida hayotiy vaziyatlarga asoslangan keyslar va loyihaviy topshiriqlar orqali kompetensiyalarni rivojlantirishning metodik mexanizmlari hali yetarli darajada takomillashtirilmagan. Ushbu tadqiqot mazkur bo’shliqni to’ldirishga, ya’ni nazariy bilimlarni amaliy ko’nikmaga aylantirishga qaratilgan.

7–8-sinf biologiya darslarida kompetensiyaviy yondashuvni takomillashtirish o’quvchilarda nafaqat bilim to’plash, balki olingan axborotni tahlil qilish va hayotiy muammolarni hal etish ko’nikmasini rivojlantirishni taqozo etadi. Tadqiqotimiz doirasida dars jarayonini tashkil etishda Bloom taksonomiyasi iyerarxiyasi hamda zamonaviy interfaol texnologiyalar integratsiyasi asosiy metodik asos qilib olindi.

### 1. 7-sinf “Biologiya” kursida tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirish

7-sinf o’quvchilarida kognitiv jarayonlar faol rivojlanayotgan davrda ularni hayvonot dunyosi xilma-xilligini o’rganishga loyihaviy ta’lim metodi orqali jalb etish yuqori samaradorlik beradi.

- 1. Metodik yondashuv:** An’anaviy darslarda hayvonlarning sistematikasi yodlatilgan bo’lsa, tavsiya etilayotgan metodikada o’quvchilarga “Muammoli izlanish” topshiriqlari berildi. Masalan, “Hasharotlarning qishloq xo’jaligidagi o’rni: foyda va zarar tahlili” mavzusida kichik guruhlarda tadqiqotlar tashkil etildi.
- 2. Bosqichma-bosqich rivojlanish:** O’quvchi dastlab hasharot turlarini aniqlaydi (eslab qolish), ularning hayot siklini tushuntiradi (tushunish) va ularning tabiatdagi muvozanatga ta’sirini qiyoslaydi (tahlil). Bu jarayon o’quvchida fanga oid tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantiradi.

## 2. 8-sinf "Odam va uning salomatligi" kursida Keys-stadi (Case-study) texnologiyasi

Inson anatomiyasi va fiziologiyasi kursi o'quvchilardan o'z organizmiga nisbatan mas'uliyatli munosabatda bo'lishni talab qiladi. Tadqiqotda ushbu kursni o'qitishda hayotiy vaziyatlarga asoslangan "Keyslar" tizimi ishlab chiqildi.

1. **Keys mazmuni:** O'quvchilarga "Gipodinamiya va yurak-qon tomir tizimi" mavzusida aniq bir insonning turmush tarzi haqida ma'lumotlar beriladi (masalan, kam harakatlanish va noto'g'ri ovqatlanish natijasidagi salomatlik ko'rsatkichlari).
2. **Amaliy vazifa:** O'quvchi berilgan ma'lumotlar asosida salomatlikka tahdid soluvchi omillarni aniqlaydi (qo'llash) va ushbu inson uchun individual sog'lomlashtirish dasturini ishlab chiqadi (sintez va baholash). Bu metod orqali o'quvchi o'z sog'lig'ini asrash kompetensiyasiga ega bo'ladi.

## 3. Didaktik model va Bloom taksonomiyasi integratsiyasi

Kompetensiyalarni shakllantirishda o'quvchining fikrlash darajasi quyidagi piramida asosida quyi bosqichdan yuqori bosqichga ko'tarib borildi:

1. **Quyi bosqichlar (1–2-daraja):** Tayanch tushunchalarni o'zlashtirish va ularni darslik matni asosida bayon etish.
2. **O'rta bosqichlar (3–4-daraja):** Olingan bilimlarni laboratoriya mashg'ulotlarida va kognitiv topshiriqlarda qo'llash, turlarni tahlil qilish.
3. **Yuqori bosqichlar (5–6-daraja):** Biologik muammolarga baho berish, ekologik va tibbiy muammolarni hal qilish bo'yicha yangi yechimlar (loyihalar, takliflar) ishlab chiqish.

## 4. Metodik vositalar va raqamli texnologiyalar

Darslarda o'quvchilarning vizual va mantiqiy xotirasini kuchaytirish uchun kognitiv xaritalar va virtual laboratoriyalardan foydalanildi. Bu vositalar murakkab biologik jarayonlarni (masalan, qon aylanishi yoki hujayra bo'linishi) oson tushunishga hamda ularni amaliyotda "ko'rib" tahlil qilishga yordam beradi.

### Tadqiqotning amaliy ahamiyati

Ishlab chiqilgan ushbu metodik tizim biologiya darslarining samaradorligini oshirish bilan birga, o'quvchilarda PISA kabi xalqaro sinovlarda uchraydigan ochiq turdagi mantiqiy savollarga javob berish ko'nikmasini shakllantiradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tajriba ishlari 2025–2026-o'quv yili davomida Xovos tumanidagi umumta'lim maktablarining 7–8-sinf o'quvchilari (jami 50 nafar) ishtirokida o'tkazildi.

1. **Metodik yondashuv:** Tadqiqotda Bloom taksonomiyasi iyerarxiyasiga asoslangan kompetensiyaviy model qo'llanildi. O'quvchilarda tadqiqotchilik va hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish uchun quyidagi metodlar tanlab olindi:
2. **Keys-stadi (Case-study):** 8-sinfda inson salomatligi muammolarini tahlil qilish orqali amaliy ko'nikmalarni shakllantirish;
3. **Loyihaviy ta'lim:** 7-sinfda hayvonot dunyosi va ekotizimni o'rganish bo'yicha mustaqil tadqiqotlar;
4. **PISA formatidagi topshiriqlar:** tabiiy-ilmiiy savodxonlikni baholash vositasi sifatida.

*Tahlil metodlari:* Natijalar nazorat va tajriba guruhlarining o'zlashtirish ko'rsatkichlarini matematik-statistik qiyoslash orqali tekshirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan metodik tizimning samaradorligini tekshirish maqsadida 7–8-sinf o'quvchilari o'rtasida pedagogik tajriba-sinov ishlari o'tkazildi. Tajriba guruhi o'quvchilari takomillashtirilgan kompetensiyaviy yondashuv (Keys-stadi, loyihaviy ta'lim metodi) asosida, nazorat guruhi o'quvchilari esa an'anaviy darslar asosida ta'lim oldilar. Ushbu metodlar qo'llanilganda o'quvchilarning darsdagi faolligi oshdi, mavzuga oid munozarali vaziyatlar muhokama qilindi. Tajriba guruhi o'quvchilari biologik tushunchalarni amaliy qo'llash, tajriba o'tkazish va mustaqil tahlil qilish bo'yicha yuqori natijalarga erishdilar.



Interfaol metodlar qo'llangan guruh va an'anaviy guruh natijalari quyidagi jadvalda ko'rsatilgan.

Baholash mezonlari (Bloom darajalari)	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi	Farq (%)
<b>Bilish va tushunish (quyi daraja)</b>	78 %	82 %	+4 %
<b>Qo'llash va tahlil (o'rta daraja)</b>	45 %	68 %	+23 %
<b>Sintez va baholash (yuqori daraja)</b>	12 %	35 %	+23 %

Olingan natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, an'anaviy darslarda o'quvchilar asosan "Bilish" va "Tushunish" bosqichlarida (78 %) yuqori natija ko'rsatgan bo'lsalar-da, bilimlarni amaliyotda qo'llash va baholash darajasidagi ko'rsatkichlar ancha past (12 %) bo'lgan. Tajriba guruhida esa Keys-stadi va loyihaviy topshiriqlar bilan ishlash natijasida o'quvchilarning yuqori darajali fikrlash ko'nikmalari 23 % ga oshganligi aniqlandi. Bu o'quvchilarning biologik jarayonlarni nafaqat yodda saqlashi, balki ularni tahlil qilishi va hayotiy muammolarga yechim topish, masalan, sog'lom turmush tarzi rejasini ishlab chiqish qobiliyati shakllanganidan dalolat beradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqotlar asosida quyidagi ilmiy-metodik xulosalarga kelindi. 7–8-sinf biologiya kursida Bloom taksonomiyasiga asoslangan kompetensiyaviy yondashuv o'quvchilarning kognitiv faolligini oshirishning samarali vositalaridan biri ekanligi isbotlandi. Keys-stadi va loyihaviy ta'lim metodlarini qo'llash o'quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini an'anaviy ta'limga nisbatan o'rtacha 15–20 % ga oshirish imkonini berdi.

Biologiya darslarida o'quvchilarni xalqaro PISA va TIMSS baholash tizimlariga tayyorlash uchun darsliklardagi nazariy ma'lumotlarni hayotiy keys-topshiriqlar bilan boyitish zarur. Shuningdek, biologiya fanlarini amaliyot bilan bog'lab o'qitish maqsadida ilmiy laboratoriyalar, tibbiyot markazlari va agrokomplekslar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish hamda ekskursiyalar tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kompetensiyaviy yondashuv asosida biologiyani o'qitish metodikasini takomillashtirish orqali o'quvchilarda axborot bilan ishlash, jamoa bilan hamkorlik qilish, ta'limdagi yangiliklardan xabardor bo'lish hamda o'rgangan bilimlarini hayotda qo'llay olish kabi ko'nikma va kompetensiyalar shakllandi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tabiiy fanlar bo'yicha Milliy o'quv dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori. – 2021.
3. Tolipova J.O. Biologiyani o'qitishda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Cho'lpon, 2011.
4. G'ofurov A.T., Fayzullayev S.S. Biologiya o'qitish metodikasining nazariy asoslari. – Toshkent, 2013.
5. Safarova R.G. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim jarayonlarini modellashtirish masalalari // Pedagogika jurnali. – 2015.
6. Almatov A.S. Odam va uning salomatligi kursini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2018.
7. Azimov I.T. Zoologiya (7-sinf) kursida o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish metodikasi: metodik qo'llanma. – 2020.
8. Bloom B.S. Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. – New York: Longmans, Green, 1956.
9. Anderson L.W., Krathwohl D.R. A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy of Educational Objectives. – New York: Longman, 2001.
10. OECD. PISA 2022 Results: Factsheets on Science Literacy and Competencies. – OECD Publishing, 2023.
11. Mayer R.E. The Cambridge Handbook of Multimedia Learning. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014.
12. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining "Ziyonet" axborot-ta'lim tarmog'i. – www.ziyonet.uz
13. Khan Academy. Biologiya bo'limining interfaol materiallari. – uz.khanacademy.org

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №5(4)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.